

Odamiylik mezoni mehr-muruvvatda

Ma'lumki, mamlakatimizda yashayotgan har bir inson qalbida insoniylik, mehr-muruvvat, bag'rikenglik kabi ijobiy xislatlar joy olgani hech kimga sir emas. Ha, albatta, qaysi yurt vakili bo'lishimizdan qat'i nazar tangri tomonidan yaratilgan har bir inson uchun o'z muruvvatimizni ayamashimiz ham ijobiy xislatlarimizdandir.

Shu kunlarda O'zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari tashkil etilganining 27 yilligi hamda Vatan himoyachilari kuni bayrami nishonlanayotgan bir vaqtda bu kabi xayrli tadbirlarni uyushtirib turish o'z navbatida savobli ishlarning bir ko'rinishi desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Hech kimga sir emaski, har yili ushbu ulug' ayyom arafasida shu kabi xayrli targ'ibot tadbirlarini uyushtirish an'anaga aylangan. Xususan, "GIM" fakulteti Yoshlar ittifoqi faol talabalari 15 yanvar kuni Toshkent shahar Mirzo Ulug'bek tumanida joylashgan "Lashkarbegi" mahalla fuqarolar yig'iniga tashrif buyurib, u yerda istiqomat qilayotgan mexrga muhtoj qariyalar holidan xabar olishdi.



GIM fakulteti yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan o'rinbosari O.Ro'zibayev axboroti

Institut Matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov